DRAMATIK QAHRAMON XARAKTERINI OCHISHDA REMARKANING BADIIY-ESTETIK FUNKSIYASI

(Sharof Boshbekov dramaturgiyasi misolida)

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ РЕМАРКИ В РАСКРЫТИИ ХАРАКТЕРА ГЕРОЯ ДРАМЫ

(на материале драматургии Шарафа Бошбекова)

THE ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTION OF STAGE DIRECTIONS IN REVEALING THE CHARACTER OF THE DRAMATIC HERO

(based on the dramaturgy of Sharof Boshbekov)

Jorayeva Dilnozaxon Otabek qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada dramatik asar qahramonining xarakterini ochishda remarkaning tutgan o‘rni va badiiy-estetik funksiyasi Sharof Boshbekov dramaturgiyasi misolida yoritiladi. Remarkaning dramadagi ahamiyati, uning badiiy asar strukturasidagi o‘rni, remarkaning joy, harakat, holat va psixologik turlari hamda drama qahramonining spetsifik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ilmiy manbalarga munosabat bildirilib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi.

Аннотация. В статье на материале драматургии Шарафа Бошбекова рассматриваются роль и художественно-эстетическая функция ремарки в раскрытии характера героя драмы. Анализируются значение ремарки в драме, её место в структуре художественного произведения, виды ремарок (ремарка места, действия, состояния и психологическая ремарка), а также специфические особенности героя драмы. Выражается отношение к научным источникам, делаются научно-теоретические выводы.

Annotation. The article examines the role and the artistic and aesthetic function of stage directions in revealing the character of the dramatic hero, drawing on the dramaturgy of Sharof Boshbekov. It analyses the significance of stage directions in drama, their place in the structure of a literary work, their types (directions of place, action, state, and psychological directions), and the specific features of the hero of a drama. The author responds to the existing scholarly sources and draws scientific and theoretical conclusions.

Tayanch so‘z va iboralar: dramatik tur, drama, spetsifika, qahramon, remarka, joy remarkasi, harakat remarkasi, holat remarkasi, psixologik remarka, badiiy-estetik funksiya.

Ключевые слова и выражения: драматический род, драма, специфика, герой, ремарка, ремарка места, ремарка действия, ремарка состояния, психологическая ремарка, художественно-эстетическая функция.

Key words and expressions: dramatic genre, drama, specificity, hero, stage direction, direction of place, direction of action, direction of state, psychological direction, artistic and aesthetic function.

Kirish

Adabiyotning o‘rganish obyekti insondir. Shuning uchun adabiyotni insonshunoslik deb bejiz aytishmagan. Badiiy asarda inson obrazi asosiy qahramon sifatida ishtirok etadi. Binobarin, adabiy turlarning «gultoji» bo‘lgan dramaturgiyada ham inson obrazi birinchi o‘rinda turadi.

Adabiy qahramon – adabiy asardagi inson obrazidir. Badiiy asardagi ishtirokchi shaxslar va personajlarga nisbatan «qahramon» tushunchasini qo‘llash mumkin. [1] Xuddi shuningdek, «Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati»da badiiy asar qahramoni haqli ravishda badiiy asarda ishtirok etuvchi

1Литературный энциклопедический словарь. – Москва: Сов. энциклопедия, 1987. – С. 603.

shaxslar[2] deb ta’riflanadi. Demak, dramatik asarda ishtirok etuvchi obrazlar shu asarning umumiy g‘oyasiga xizmat qiluvchi shaxslardir. Adabiy turlarning har birida qahramon o‘ziga xos talqin etiladi. Bu ularning voqelikni badiiy o‘zlashtirishdagi usul va imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

Dramatik turga oid tadqiqotlar va darsliklarni kuzatganimizda, dramaning spetsifikasi sifatida bir qator xususiyatlar ko‘rsatilganini ko‘ramiz. Jumladan, akademik Izzat Sulton dramada qahramonlarning xususiyati haqida quyidagilarni ta’kidlaydi: «Dramatik turda xarakterlar tasviri boshqa adabiy tur va janrlardan farqli o‘laroq, juda ham bo‘rttirilgan bo‘ladi».[3]

Drama qahramonining spetsifik xususiyatlari

Yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda, dramatik asar qahramonining spetsifik xususiyati haqida quyidagilarni qo‘shimcha qilish mumkin. Eng avvalo, har qanday tur qahramonining spetsifik xususiyati shu turning janr imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, drama qahramonining o‘ziga xos xususiyatlari o‘zbek adabiyotshunosligida yetarlicha keng o‘rganilmagan. Shu bois dramatik tur xususiyatlariga tayangan holda, dramada qahramon spetsifikasini o‘rganishni zarur deb bildik.

I. Sulton «Adabiyot nazariyasi» kitobida dramatik turning spetsifik xususiyatiga asosan to‘xtalib, uning kollektiv sezimga ega ekanini alohida e’tirof etadi. Bu dramaning bir butun asar sifatida o‘qilishida remarkaning o‘rni nihoyatda katta ekanini bildiradi. Muallif remarkasi drama qahramonining o‘ziga xosligini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

O‘tgan asrning 80-yillariga kelib o‘zbek dramaturgiyasida teatr va tomoshabin muammosi yuzaga keldi. Biroq Sharof Boshbekovning «Temir xotin» komediyasining yaratilishi bilan bu muammo hal bo‘lganday bo‘ldi. Har bir dramatik asar sahna uchun

2Hatamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – B. 335–336.

3Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986. – B. 269.

yaratiladi, lekin u dastlab so‘z san’ati – badiiy asar namunasidir. Agar drama tomoshabin talablariga javob bermasa, tomoshabin uni teatrda ko‘rmay qo‘ysa, asar o‘z-o‘zidan repertuardan tushib ketadi. Shuni hisobga olsak, drama qahramonining birinchi spetsifik xususiyati – uning ikkinchi hayotini sahnada davom ettirishidir. Drama qahramoni o‘z hayotini sahnada ko‘rsatib berishi bilan ajralib turadi va nisbiy mustaqil faoliyat ko‘rsatadi. Uning yana bir o‘ziga xos xususiyati dramada muallif remarkasining mavjudligidir.

Remarkada asarda ishtirok etuvchi shaxslarning tashqi ko‘rinishi, xatti-harakati, qalb kechinmasi, so‘zidagi intonatsiya, shuningdek, voqealar kechadigan shart-sharoit, payt va o‘rin kabilar ko‘rsatiladi.[4] Mazmuniga ko‘ra remarkalar joy, harakat, holat va psixologik turlarga bo‘linadi. Quyida ularning qahramon xarakterini ochishdagi o‘rni Sh. Boshbekov asarlari misolida ko‘rib chiqiladi.

Joy tasviri remarkasi

Joy tasviri remarkasiga misol tariqasida quyidagi sahna ko‘rinishini keltiramiz:

«Qishloqdagi oddiy, kamtarona hovli. To‘g‘rida bir necha ustunli peshayvon, o‘ngda pastgina peshayvon, ko‘cha eshik, oldinroqda yog‘och karavot. Sahnadagi har bir jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi: eshik-deraza romlarining yarmi bo‘yalgan, qolganining rangi o‘chib ketgan, yog‘och karavotning bitta oyog‘i yo‘q».[5]

Keltirilgan remarkadan bosh qahramonning yashash sharoiti, uy jihozlarining ko‘rimsizligi, tunu kun mehnat qilsa ham, yaxshi yashamaganiga guvoh bo‘lamiz. Sahnaga hali chiqib ulgurmagan Qo‘chqor haqida kitobxon va rejissyorga dastlabki ma’lumot beriladi. Tomoshabin remarka yordamida, rejissyor mahorati asosida bezatilgan sahna ko‘rinishidan bosh qahramonni taniydi. Eshik va romlarning to‘liq bo‘yalmaganidan uning xafsalasizligini, yamoq tushgan piyola, uchgan choynaklardan nochorligini, yog‘och karavot oyog‘iga qo‘yilgan g‘ishtdan bechoraligini anglab oladi.

4Jalilov B. O‘zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari. – Toshkent, 1984. – B. 32.

5Boshbekov Sh. Eshik qoqqan kim bo‘ldi? – Toshkent, 1989. – B. 163. Keyingi iqtiboslar ham shu manbadan olinadi.

Keltirilgan joy tasviri remarkasida qahramon o‘zining boshlang‘ich xarakteristikasiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, nasriy asarga nisbatan bosh qahramonni tanish tomoshabin uchun tezlashadi, ya’ni u hali asar syujetida ishtirok etmasidanoq qahramon bilan tanishadi. Nasriy asarlarda bunday tasvir ko‘p hollarda muallif nutqi orqali amalga oshiriladi. Biroq nasriy asardagi muallif nutqidan dramadagi remarka farq qiladi: remarkada faqat zarur, aniq narsagina berilib, u nisbatan badiiylikdan xoli bo‘ladi. Keltirilgan remarkadan faqat joy tasvirini emas, balki bosh qahramon xarakterining qirralari, didi, saviyasi haqida ham ma’lumot olish mumkin. Joy tasviri remarkasi har qanday dramatik asarda berilishi tabiiy. Remarkaning bu ko‘rinishi ko‘proq dramaning boshlanishida uchraydi.

Harakat va holat remarkasi

Harakat tasviri remarkasida drama qahramonining faoliyatiga munosabat bildiriladi, ko‘rsatma beriladi. Dramada harakat tasviri remarkasining ahamiyati katta, chunki unda harakat birinchi o‘rinda turadi. Muallif qahramonning harakat jarayoniga aralasha olmagani uchun ham ularning har bir harakati remarkada beriladi. Masalan:

«Peshayvon ustuniga Qo‘chqor arqon bilan chandib tashlangan, ust-boshi, aft-angori bir ahvolda. Shu kuyi uxlab qolgan bo‘lsa kerak, avval sekin qimirlab qo‘yadi, so‘ng ko‘zini ochmay oyoq-qo‘li o‘ziga bo‘ysunmaganiga hayron bo‘lib qaradi».[6]

Qo‘chqorning o‘ziga xos tomonlari yuqoridagi harakat remarkasida yanada yaqqol ko‘rinadi. Quyidagi remarkada esa Saltanatning holati ochib beriladi:

Saltanat. *(devorga qapishib) Voy, o‘lib qo‘ya qolay!.. Voy, shorim, Qo‘chqorvoy, mehmonimning tutqanog‘i bor deb aytib qo‘ysangiz bo‘lmaydimi? Voy, tortsangiz-chi buningizni!.. Voy, sharmanda!..*

Alomat. *(mushtini Saltanatning naq burniga tekkizgudek qilib) «G‘ing» degan ovozingni eshitsam, o‘zingdan ko‘r, megajin! Umuman, ovozing chiqmasin, tushundingmi?! Bundan buyon doim shivirlab gapir!*

Saltanat. *Xo‘p, dedim-ku, opovsi, bitta gapdan qolsak, o‘libmizmi!*[7]

6Boshbekov Sh. Eshik qoqqan kim bo‘ldi? – Toshkent, 1989. – B. 121.

Drama ishtirokchilarining barchasining harakat va holatlari muallif tomonidan berilgan harakat va holat remarkalarida yanada yaqqol ko‘rinadi. Har ikki remarkaning bir vaqtning o‘zida berilishi kuzatiladi. Masalan, Olimjon, Alomat va Qo‘chqor o‘rtasida bo‘lib o‘tgan suhbat jarayonidagi badiiy situatsiya remarka yordamida aniq ko‘rsatiladi:

Olimjon. *Bu kishi – Qo‘chqor aka.*

Qo‘chqor. *(arang jilmayib) Shundoq, shundoq...*

Alomat. *Qo‘chqor aka.*

Qo‘chqor. *Labbay?..*

Alomat. *Ko‘nglingizga kelmasin-u, nega endi sizga hayvonning nomini qo‘yishgan, qo‘chqor deb?*

Qo‘chqor. *Ie?..*

Alomat. *Qo‘chqor – qo‘yning erkagi-ku.*

Qo‘chqor. *Haligi... nima deydi... Ha endi, biz odamning erkagimiz-da, Alomatxon...*

Alomat. *Bizga nima xizmat bor, odamning erkagi?*[8]

Psixologik remarka

Qumri va Qo‘chqor dialogida asosan psixologik remarka berilib, Qumrining psixofiziologik holati ochib beriladi:

Qumri. *(xo‘rligi kelib) Aytadiganingizni aytdingiz...*

Qo‘chqor. *Aytadiganimiz nima ekan?*

Qumri. *Hali odamlar kelsa, tushuntirib berishadi. (ko‘ngli to‘lib) Men bolalarimni olib, oyimlarnikiga ketdim. Maktabdan chiqib, to‘g‘ri o‘sha yoqqa borishadi.*

Qo‘chqor. *Ie, jinnimisan, vey? Ozgina sho‘xlik qilsak-qilibmiz endi, yigitchilikda nimalar bo‘lmaydi.*

7Boshbekov Sh. Temir xotin. – B. 190.

8Boshbekov Sh. Temir xotin. – B. 174.

Qumri. *(yig‘lamoqdan beri bo‘lib) Bu sho‘xliklaringiz o‘n olti yildan beri (tomog‘ini ko‘rsatib) mana bu yerimga kelgan…*[9]

Muallif personaj ruhiyatidagi taranglik holatini tasvirlashda holat va harakat remarkalaridan foydalanib, obrazning ruhiy holatini mukammal ochib berishga erishadi.

Xulosa

Shunday qilib, dramatik asarlarda remarkaning ahamiyati katta bo‘lib, u asarning badiiy butunligini ta’minlashda badiiy-estetik funksiyani bajaradi. Muallif remarkasi drama qahramonining o‘ziga xosligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Joy tasviri remarkasi qahramonning boshlang‘ich xarakteristikasini beradi va uni tomoshabinga hali sahnaga chiqmasidan tanishtiradi. Harakat va holat remarkalari qahramonning xatti-harakati va holatini muallif ko‘rsatmasi asosida aniq belgilaydi. Psixologik remarka esa personajning ichki kechinmalari va ruhiy holatini ochib beradi. Remarkaning ana shu turlari birgalikda drama qahramoni xarakterini to‘liq va ta’sirchan talqin etishga xizmat qiladi.

9Boshbekov Sh. Eshik qoqqan kim bo‘ldi? – Toshkent, 1989. – B. 167.